



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,  
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

## XORAZM VILOYATI OYKONIMLARI TA'RIFI

**Xolmetova O'g'iljon Atajonovna**

magistrant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

e-mail: beka97833@gmail.com

**Annotatsiya:** Xorazm viloyati oykonimlari ta'rifi (Xonqa tumani misolida) deb nomlangan tezisda bir qancha oykonimlarning geografik o'rni tarixiy kelib chiqishi, yozma manbalarda qanday yoritilganligi va ayni paytda nomining o'ziga to'g'ri kelishligi yoritildi.

**Kalit so'zlar:** oykonim, gidrooykonim, Xorazm, Xonqa, Tomodurgadik, Madir, Qirqyop, Sarapoyon.

## DESCRIPTION OF THE OIKONYMS OF THE KHOREZM REGION

**Kholmetova Ugiljon**

**Abstract:** In the thesis entitled "Description of the oikonyms of the Khorezm region" (using the example of the Khanqa district), the geographical position of several oikonyms, their historical origin, how they are reflected in written sources, and at the same time their correspondence to the name were highlighted.

**Keywords:** oikonym, hydrooikonym, Khorezm, Khonqa, Tomodurgadiq, Madir, Kirkep, Sarapoen.

Xorazm viloyati mamlakatimizning shimoliy-g'arbida joylashgan viloyatdir. Ushbu viloyat tabiiy sharoiti keskin kontinental bo'lib, bu geografik joy nomlarida ham o'z aksini topadi. Toponimlarning bir qancha turlari borligi hammaga ma'lum. Shular orasida eng o'zgaruvchan toponimika tarmog'i oykonimlardir.

Oykonim deganda biz shahar qishloq, ovul va boshqa aholi punktini tushunamiz.

Oykonimlar barcha toponimlar orasida tarixiy jihatdan eng qadimiy va qimmatli yodgorlik bo'lib hisoblanadi. S.Qorayevga ko'ra, aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Shuning uchun ham shahar-qishloqlarning tarkib topishi, joylashuvi atalish qonuniyatlarining konkret tabiiy-tarixiy va siyosiy sharoit bilan uzviy bog'liq holda o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Odatda, qishloq nomlari juda qadimiyligi bilan ajralib turadi. Biz ushbu ishda Xonqa tumani qishloqlari nomlarining ma'nolarini kengroq yoritishga harakat qildik.

Xonqa tumani Xorazm viloyatidagi 1926-yil 29-setabrda tashkil etilgan tuman. Maydoni 0,43 ming km<sup>2</sup>, aholisi 150 ming kishidan ortiq. Tumanda bitta shaharcha (Xonqa), 10 ta tuman fuqoralar yig'ini: Amudaryo, Jirmiz, Madir, Novxos, Olaja, Sarapoyon, Tomodurgadik, Qirqyop, Qoraqosh bor. Tuman markazi – Xonqa



shaharchasi. Qishloq-shahar nomlarini ayrim-ayrim o'rganishdan ko'ra S.Qorayev ularni guruh-guruhlarga bo'lishni muvofiq hisoblaydi:

1. Tabiiy yoki tabiiy geografik oykonimlar.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.

Xonqa tumani oykonimlar orasida yuqoridagi guruhning birinchi turiga Sarapoyon, Qirqyop, Amudaryolarni kiritish mumkin. Chunki ular suv obyektlariga qarab atalgan aholi punktlari – gidrooykonimlardir.

Sarapoyon Xonqa tumanining serunum va serfayz qishloqlaridan biri. U forsiy-turkiy atama bo'lib, uch komponent qismdan iborat. Sar-ob-yon. Sar-bosh, ob-suv, yon esa makon, ya'ni suv bo'yida joylashgan qishloq degani. Ba'zi olimlar Sarapoyon atamasini Sara-yaxshi (serunum), poyon esa chegara (hudud)lardagi yerlar yoki ajoyib qishloq deb talqin qiladilar. Ikkala talqida ham Sarapoyon Xorazm elining qadimiy qishloqlaridan biri ekanligini ko'rish mumkin.

Qirqyop qishlog'i tuman markazining shimoliy qismlarida joylashgan. Janubiy qismidan Xonqaarna oqib o'tsa, shimoliy qismlaridan Amudaryo etaklariga tutashadi. Qishloq hududidan o'tmishda ham hozirda ham o'nlab katta-kichik kanal, ariq, solmalar oqib o'tgan. Uning Qirqyop deb atalishiga sabab ham bu yerda sug'orish tarmog'ining ko'pligidir.

Amudaryo qishlog'i tuman markazidan 11 km uzoqlikda joylashgan. Shimol tomonidan Amudaryo, janubda Shovot kanali oqib o'tadi. Qishloq yerlari yaqin o'tmishda ham to'qayzor va qamishzorlar bilan qoplangan bo'lgan. Inson mehnati bilan ko'p qismi o'zlashtirilgan. Xorazmning asosiy daryosi Amudaryoga yaqin bo'lganligidan shu nom berilgan.

Kishilarning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar inson xo'jalik faoliyatining qadimiy turlarini geografiyasini, qadimdan mavjud bo'lgan kasb-hunar nomlarining, ko'hna yo'llar va boshqa ko'plab ma'lumotlarini aniqlashda katta yordam beradi. Ushbu turga Xonqa tumanidan Tomodurgadik qishlog'i, Novxos, Olaja, Qoraqosh, Madir qishloqlarini kiritish mumkin.

Tomodurgadik qishlog'i tumanning Polvon va Shovot kanallari oqib o'tadigan ortaliqdagi qishloq. Xorazmlik tarixchi, olim va shoir Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonida "Qaysilarini der edilar tomodur" degan misra uchraydi. Bu shimoliy o'zbek urug'laridan birining nomi ekanligidan dalolatdir.

Toma urug'i Shayboniyxon Xonqani bosib olganda unga qarshi kurashgan mard o'zbek urug'laridan birining nomi bo'lgan. Polvon-G'azavot yopi o'rtasida joylashgan Durvadik qadimdan atrofi chorbog' bilan o'ralgan qal'a bo'lgan. Unda ma'dali ro'mol (matir ro'mol) va olacha ipak matolar to'qiydigan ajoyib hunarmand kosiblar yashaganligi ma'lum. Durvadik yoki Durgadik so'zining ma'nosi dur "durlar, durdonalar vodiysi", gadik ikki yopning (ariqning) torayib, kichrayib oqqan joyi

deganidir. Haqiqatdan ham ushbu hudud Polvon va Shovot kanallarining o'rtasiga to'g'ri keladi. Aholisi esa qadimgi hunarmandchilik bilan shug'ullanadi.

Tumandagi yana bir qishloq nomi Madir deb ataladi. Madir so'zi "mard el", "mardlar o'lkasi" ma'nosida ishlatiladi. Akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi maxsus ekspeditsiya 1937-yilda hududda avliyo Shayx Sulaymon Xaddodiy xonaqosini o'rganligini "Xorazmning sug'orilish tarixi" nomli asarda yozib o'tadi. Yahyo G'ulomov yozishicha, Shayx Sulaymon qabristoni o'rnida Madir qal'asi bo'lganligini va u Chingizxon tomonidan vayron etilgan.

Novxos vohaning eng qadimiy qishloqlaridan birining nomi. Forscha "Nav" (nov) – yangi, "Xos" (Xose) – qishloq, makon, qal'a umuman olganda "Yangi qishloq" degan ma'noni beradi.

Olaja, Qoraqosh oykonimlari to'g'risida biron tarixiy ma'lumot yo'q. Bu bo'shliqni xalq rivoyatlari va mifologiyasi to'ldiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har bir hudud nomi o'z tarixidan, geografik holatidan bizga ma'lumot beruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Aholining qariyb yarmi qishloqlarda yashovchi mamlakat uchun qishloq nomlarini o'rganish ham muhim deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qorayev S. Toponimika.-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.Toshkent-2006.66-bet.
2. Hakimov Q.M.,Mirakmalov M.T.Toponimika.Toshkent-2020.6-12-betlar.
3. Xakimova So'najon,O'rinboy Xo'janiyozov.Xonqa tarixi.-Urganch,"Xorazm"-1995.5-34-45 betlar.